

SHARTNOMA № 1
(oldi-sotdi shartnoma)

«24» yanvar 2022yil

Boysun tumani

Fuqaro Akramov Murodbek Abdijafarovich (keyingi o‘rinlarda **“Sotuvchi”** deb ataladi) bir tarafdin, ikkinchi tarafdin **Boysun tuman Xokimiyati** nomidan (keyingi o‘rinlarda **Sotib oluvchi** deb, birgalikda esa **“TARAFLAR”** deb yuritiladi) nomidan Nizom asosida ish yurituvchi raxbari F.Normamatov mazkur shartnomani taraflarning o‘zaro kelishuvi asosida quyidagi maqsadda tuzdik.

1. Shartnomaning predmeti va summasi

1.1. “Sotuvchi” “Sotib oluvchi” tomonidan buyurtma qilingan **Boysun tumani Shirinobod MFYdagi 100 kvmdan, 6 xonadan iborat noturarjoy binosini** sotadi, “Sotib oluvchi” esa ushbu binoni sotib olib, mazkur shartnoma shartlari asosida to‘lovlarni Sotuvchining Xalq bankidagi plastik hisob raqamiga o‘tkazadi.

1.2. Sotuvchi shartnomada qayd qilingan obyektни sotish, Sotib oluvchi, uni qabul qilish va haqini ushbu Shartnomada belgilangan muddatlarda to‘lash majburiyatini oladi.

1.3. Shartnomaning summasi **210 000 000 (Ikki yuzi o‘n million)** sumni QQSsiz tashkil etadi.

1.4. “Sotuvchi” tovar moddiy boyliklarning qiymat narxi oshganligi natijasida o‘zgarganda “Sotib oluvchi”ga oldindan xabardor qilib, tovar moddiy boylikning o‘zgargan narxini asoslagan holda sotadi.

1.5. “Sotib oluvchi” o‘zgargan narxlar asosida qo‘shimcha kelishuvga asosan to‘lovlarni amalga oshiradi.

2. To‘lov tartibi

2.1. Sotib oluvchi shartnomaning 30% mikdorida Sotuvchining xisob varag‘iga o‘tkazib beradi.

2.2. Ushbu shartnomaga muvofiq haq to‘lash (xisob-kitob qilish shakli) pul o‘tkazish yo‘li bilan amalga oshiriladi.

2.3. “Sotib oluvchi” tomonidan mazkur shartnomaning 3.1.bandi talablari bajarilmagan taqdirda “Sotuvchi” shartnomada ko‘rsatilgan obyektни bermaslikka haqli bo‘ladi.

2.4. “Sotuvchi” tomonidan obyekt o‘z vaqtida topshirmasa, buning natijasida ikkinchi tomon jiddiy zarar ko‘rsa bir tomonlama shartnomani bekor qilishga asos bo‘ladi.

3. Obyektning sifati

3.1. Sifat obyektning ushbu guruhi uchun amaldagi standartlarga muvofiq kelishi kerak.

Sotuvchi qonun xujjatlariga muvofiq tovarga bo‘lgan kafolat muddatlarini taqdim etadi.

3.2. Obyektни sifatini uning qabul qilish jarayonida aniklanadi. Agar obyektning sifati yaxshi bo‘lmasa yoki sifatsizligi aniklansa, Sotib oluvchi undan foydalanishni darxol to‘xtatadi va sotuvchining vakilini chakiradi. Sotib oluvchi va Sotuvchining vakillari ishtirokida obyektning sifati to‘g‘risida dalolatnoma tuziladi.

Agar obyekt Sotuvchi vakil yuborish to‘g‘risidagi Sotib oluvchining yozma murojaatiga, shu jumladan elektron pochta orqali yuborilgan xatlarga javob bermasa yoki vakilini yubormasa obyekt sifati to‘g‘risidagi dalolatnomani Sotib oluvchini o‘zi tuzadi.

Dalolatnoma tuzilganidan so‘ng obyekt sifati yuzasidan Sotib oluvchi Sotuvchiga talabnoma yuboradi.

3.3. Sotuvchi talabnomadagi obyekt sifati to‘g‘risidagi e‘tirozlarga rozi bulsa yaroqsiz mahsulot mavjudligi haqida xabar olgan paytdan boshlab 20 kun ichida sifatsiz yetishmovchi mahsulotni yoki uning qismlarini yetkazib beradi, Obyektning kamchiligi uni tuzatish yoki

ta'mirlash orqali bartaraf etiladi. Agar sifati buycha e'tirozlar bunday yo'l bilan bartaraf etila ololmasa sifatsiz mahsulotni yoki uning kismini almashtirib berishga majbur.

3.4. Obyekt nuqsonlari aniqlanganligi munosabati bilan Sotib oluvchi tomonidan kafolatli muddat doirasida qaytarilgan mahsulotlar Sotuvchiga qaytarib berilishi lozim, bunda Sotuvchi ularning qiymatini to'liq qoplab berishi yoki Sotib oluvchi bilan kelishgan holda 30 kun ichida yaroqsiz mahsulotlarni sifatli mahsulotlar bilan almashtirib berishi kerak.

4. Tomonlarning majburiyatlari

4.1 "Sotuvchi" majburiyatlari:

- * Buyurtma asosida shartnomada ko'rsatilgan obyektни sotadi.
- * "Sotuvchi" sotilayotgan obyektning sifatligini ta'minlaydi.
- * Sotuvchi "Sotib oluvchi" aniqlangan kamchiliklarni o'z vaqtida bartaraf etib boradi.

4.2. "Sotib oluvchi" majburiyatlari:

* Sotib olinayotgan obyektни qabul qilib olguncha "Sotib oluvchi" ishtirokida obyektни obdon ko'zdan kechiradi va uning sifatiga yaroqliligiga e'tibor beradi:

* Agar obyekt talabga javob bermasa, ya'ni sifatsiz bo'lsa, "Sotib oluvchi" qabul qilmaslikka va sifatsiz bajarilgan ish qismini qaytadan to'liq, sifatli, bajarib borishini talab qilishga haqli bo'ladi.

* Qurilgan obyekt "Sotib oluvchi" tomonidan to'liq qabul qilib olingandan so'ng "Sotuvchi"ga shartnomada qo'rsatilgan summaning qolgan qismini to'liq o'tkazib berishi shart.

5. Tomonlarning javobgarligi

5.1. Tomonlar shartnomada ko'rsatilgan majburiyatlarni lozim darajada bajarmagan taqdirda O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi va 29.08.1998-yildagi 670-1-sonli "Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy huquqiy bazasi to'g'risida"gi Qonunning 25-32 bandlari bo'yicha javobgar bo'ladilar.

5.2. To'lovlar muddati kechiktirilganda, "Sotib oluvchi" kechiktirilgan xar bir kun uchun 0,5 miqdorida, lekin shartnomaning umumiy summasini 50% dan oshmagan miqdorda penya to'laydi.

5.3. Shartnomada ko'rsatilgan ish hajmini o'z vaqtida bajarilishini kechiktirganlik uchun "Sotuvchi" kechiktirilgan xar bir kun uchun 0,5% miqdorida, lekin shartnomaning umumiy summasini 50%dan oshmagan miqdorda penya to'laydi.

5.4. Sotib olingan obyekt "Sotib oluvchi" tomonidan qabul qilingandan keyin ikki tomonning kelishuviga binoan 6 oy muddatga javobgarlik "Sotuvchi" tomonidan qoladi.

5.6. Shartnomaning amal qilish muddati tugashi taraflarni uni buzganlik uchun javobgarlikdan ozod qilmaydi.

5.7. Shartnomani bajarishdan bir taraflama bosh tortishga yoki bir taraflama o'zgartirish kiritishga yo'l qo'yilmaydi.

5.8. "Sotuvchi" tomonidan ishlar to'liq bajarilgandan so'ng, to'lanmay qolingan summa "Sotib oluvchi" tomonidan 15 bank ish kunida to'lab berilishi shart. Aks holda amaldagi qonunlar asosida hal qilinadi.

6. Nizolarni hal qilish tartibi

6.1. Mazkur shartnoma bo'yicha tomonlar shartlarni bajarmagan taqdirda, javobgar tomon keltirilgan moddiy va ma'naviy zararlarni qoplaydi.

6.2. Tomonlarning o'rtasida shartnomani tuzishda, bajarilishida, o'zgartirish va bekor qilishda yetkazilgan zararlarni qoplashda yuzaga keladigan nizolar ogohlantirish va da'vo xatlari tartibida, agarda murosaga kelinmaganda viloyat Iqtisodiy sudi orqali hal qilinadi.

7. Qo'shimchalar

7.1. Ikki tomonning o'zaro yozma kelishuviga asosan mazkur shartnomaga kiritiladigan o'zgarish va qo'shimchalar qonuniy kuchga ega bo'ladi. O'zgarish va qo'shimchalar shartnomaga ilova qilishini mumkin. Qilingan ilova ikki tomonning muhri va imzosi bilan tasdiqlangan bo'lishi shart.

7.2. Bir tomonlama shartnomani bekor qilishga to'lov shartlari bajarilmaganligi va mahsulot yetkazib berish tartiblari buzilganligi asos bo'ladi.

8. Fors-major

8.1. Agar shartnoma tuzilgandan so'ng ikki tomon o'z majburiyatlarini g'ayri tabiiy holatlar suv tshqini, yong'in, yer qimirlashi va boshqa tabiiy ofatlar sababli bajarilmasa, hech qaysi tomon to'la yoki qisman bajarilmagan majburiyatlar uchun javobgar hisoblanmaydilar.

9. Shartnomaning amal qilish muddati

9.1. Mazkur shartnoma g'aznachilikdan ro'yxatdan o'tgan kundan boshlab kuchga kiradi va 31.12.2022 yilgacha amalda bo'ladi.

9.2. Mazkur shartnoma 2 nusxada tuzilgan bo'lib ikki tomon uchun ham teng kuchga ega bo'lib, bank hisob-kitoblarini amalga oshirishga asos bo'ladi.

10. Tomonlarning yuridik manzili

Sotuvchi:

Akramov Murodbek Abdijafarovich
Boysun tumani Pasurxi MFY
r/s: 29801000900000746692
Davlat Xalq banki Boysun tuman bo'limi.
MFO:00746. INN:201325055
Tel: +99899 608 50 00
Pasport AB8588885
Boysun tuman IIB 08.03.2018

Rahbar



M. Akramov

"Sotib oluvchi"

Boysun tuman Hokimiyati
Boysun tumani Hayot Abadiy ko'ch
1-uy tel 763353381
SHXR 100022860222047013990018009
STIR 201531931 OKONX
O'zbekiston Resp. Moliya Vazirligi
G'aznachiligi XR23402000300100001010
STIR 201122919

Rahbar



F. Normamatov

Bosh yuristkonsul

24.01.2022

T. Turdimurodov



